

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TABIATGA BO'LGAN QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yoqubjonova Go`zalxon Xasanboy qizi

QDPI Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrası o`qituvchisi

Quldasheva Malikaxon Abdumalik qizi

QDPI Boshlang`ich ta`lim fakulteti talabasi

Anotatsiya: Boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiatni bilishga bo`lgan qiziqish ularning tabiatshunoslik asoslari haqidagi nazariy bilimlarni o`zlashtirishga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish omili tarzida namoyon bo`ladi. Qiziqish, shakllanganlik darajasiga ko`ra beqaror va barqaror, chuqur va yuzaki, uzoq hamda qisqa muddatli bo`ladi.

Kalit so`zlar: Ta`lim, integratsiya, metod, metodika, integratsiyalashgan darslar, ta`lim va tarbiya, pedagogik texnologiyalar.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiatshunoslik asoslari to`g`risidagi tasavvur va tushunchalarning shakllanishidagi muhim asos – hissiy idrok etish hisoblanadi. Shu bois fan o`qituvchisi o`quvchilarga nazariy tushunchalarni berishda hissiy obraz va ularning shaxsiy tajribalarini o`zaro uyg`unlashtira olishi muhimdir. Tushunchalarning mavhumligi, ularning real voqealikdan uzoqligi o`quvchilarning bilimlarni yuzaki o`zlashtirishdagi sabab bo`lish bilan birga ularda tabiatni bilishga bo`lgan qiziqishini pasaytiradi. R.A.Mavlonova, B.R.Adizov hamda R.Ibragimovlarning ishlarida boshlang`ich ta`lim mazmunida nazariy bilimlarning yetakchi o`rin egallashi didaktik zaruriyat ekanligiga urg`u berilib, “boshlang`ich ta`limning nazariy darajasini oshirish bolalarning fang abo`lgan hissiy faoliyatini alohida shakllarini kengaytirishni ko`zda tutishi” ta`kidlab o`tiladi. Bu yosh davri o`quvchilarining tabiatni o`rganishga hissiy

yondashuvlari real voqelik, predmet va hodisalarni bevosita idrok etish jarayonida namoyon bo`ladi. Pedagogik hamda psixologik mazmundagi adabiyotlarda qayd etilishicha, boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiatni bilishga bo`lgan qiziqishni shakllantirishning muhim omili - bu tabiat, unng asoslari to`g`risidagi materialning nazariy qiymatini ta`minlash, bilish faoliyatini takomillashtirish sanaladi. Tabiatni o`rganishga bo`lgan qiziqish quyidagi ikki muhim jihatdan namoyon bo`lishiga xizmat qiladi:

1) Boshlang`ich sinf o`quvchilarida sezgi organlari faoliyatini rivojlantirish, turli ranglarni farqlay hamda bir – biridan ajrata olish, rang – barang ovozlarni tinglay va bir – biridan ajrata olish, hid va ta`mlarni seza bilish, his – tuyg`ularni shakllantirish, tengdoshlari hamda atrofdagilar bilan tashkil etiluvchi muloqot jarayonida ulardan o`rinli foydalanish;

2) Tabiatni o`rganish jarayonida ta`lim mazmunini to`laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi maqbul didaktik vositalarni tanlash imkonining yuzaga kelishi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiatni bilishga bo`lgan qiziqish ularning tabiatshunoslik asoslari haqidagi nazariy bilimlarni o`zlashtirishga bo`lgan ehtiyojlarini qondirish omili tarzida namoyon bo`ladi. Qiziqish, shakllanganlik darajasiga ko`ra beqaror va barqaror, chuqur va yuzaki, uzoq hamda qisqa muddatli bo`ladi. Qiziqishning barqaror, chuqur va uzoq muddatli bo`lishi boshlang`ich sinf o`quvchilari tomonidan tabiatshunoslik fani asoslarining puxta o`zlashtirishini taminlaydi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida tabiatni bilishga bo`lgan qiziqishni shakllantirishda darslik hamda metodik qo`llanmalarmuhim vositalari sanaladi. Bu kabi o`quv manbalaria berilayotgan o`quv materiallari vazifasi va tarkibiy tuzilishiga ko`ra o`quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish qonuniyatlari talablariga javob bera olishi lozim. Darslik hamda o`quv qo`llanmalar o`z ifodasini topgan o`quv materiallari quyidagi ikki jihatni o`zida namoyon eta olishi zarur:

1) O`quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi bevosita kuzatishning samarali kechishini taminlovchi vosita;

2) O`quvchilarning tashkil etishlari talab etilayotgan navbatdagi faoliyat me`yorlarini belgilab beruvchi o`ziga xos yo`riqnoma.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining fikrlash faoliyati ko`p jihatdan maktabgacha ta`lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarga xos bo`lgan fikrlash jarayonini eslatadi. Zero, o`quv materiallari mazmunining tahlili ko`proq ko`rgazmali – amaliy harakatlarni tashkil etish asosida olib boriladi. Bu o`rinda o`quvchilar muayyan fanlar asoslari borasida ma`lumot beruvchi dalillar yoki ularning tasviriy obrazi bo`lgan materiallarni o`zlashtiradilar.

1 – 2- sinf o`quvchilari tabiat fani va tabiat hodisalar xususidagi ma`lumotlarni bir yoqlama, tarqoq, sayoz o`zlashtiradilar. Ularning asosiy e`tibori o`rganilayotgan obyektning tashqi ko`rinishini belgilovchi belgilarga yo`naltiriladi. Xulosalar ularning ichki xususiyatlarini yorituvchi jihatlar asosida emas, tashqi xususiyatlarini inobatga olish asosida chiqariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirhojiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
2. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O`RNI. Scienceweb academic papers collection.
3. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 78-82.
4. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
5. Abdulxayeva, M. (2023). O`Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. *Interpretation and researches*, 1(1).

6. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
7. Musharraf, A. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. Open Access Repository, 9(6), 211-216.
8. Abdulhayeva, M. (2023). EDUCATIONAL DICTATION AND ITS TYPES. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal.
9. Yigitaliyevich, A. U. (2022). SECOND IN ORDER PARAMETERIZED PRIVATE DERIVATIVE DIFFERENTIAL EQUATIONS. Open Access Repository, 8(12), 489-498.
10. Isaboyeva, D. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA AND IDEOLOGY IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION. Science and innovation in the education system, 2(12), 133-137.
11. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
12. Go'zalkhan, Y. (2023). METHODOLOGY OF TEACHING SCIENCE IN PRIMARY GRADES. Conferencea, 18-21.
13. Sabirjankizi, M. S., Salimovna, V. M., Abramovich, R. Z., & Rakhmonovna, N. G. (2022). WOMEN'S AND YOUTH EMPLOYMENT AS AN URGENT PROBLEM OF SOCIAL PEDAGOGY. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(7).
14. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
15. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.
16. Dilafruz, M. (2022). BOUNDARY ISSUE IN THE TERMINO